



THE ACTIVITIES OF SCHOOLS AND MADRASAHS IN THE KHIVA KHANATE DURING THE REIGN OF MUHAMMAD RAHIMKHAN II (1864–1910)

Jamshidbek Ibodullayev

Trainee teacher, independent researcher

Urgench RANCH University of Technology

Urgench, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Muhammad Rahimkhan II, Feruz, Khiva Khanate, school, madrasa, education system, enlightenment, 19th century.

Received: 04.03.26

Accepted: 05.03.26

Published: 06.03.26

Abstract: This article provides a scientific analysis of the activities of schools and madrasahs during the reign of the ruler of the Khiva Khanate Muhammad Rahimkhan II (Feruz) in the late 19th - early 20th centuries, their material support, educational content, and role in social life. In the research process, historical sources, chronicles of the khanate period, and works of modern historiography were used. Also, Feruz's contribution to the development of science and enlightenment, and the importance of religious and educational institutions in society were highlighted.

MUHAMMAD RAHIMXON II DAVRIDA (1864–1910) XIVA XONLIGIDA MAKTAB VA MADRASALAR FAOLIYATI

Jamshidbek Ibodullayev

Stajer o'qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi

Urganch RANCH texnologiya universiteti

Urganch, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Muhammad Rahimxon II, Feruz, Xiva xonligi, maktab, madrasa, ta'lim tizimi, ma'rifat, XIX asr.

Annotatsiya: Mazkur maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xiva xonligi hukmdori Muhammad Rahimxon II (Feruz) davrida maktab va madrasalarning faoliyati, ularning moddiy ta'minoti, ta'lim mazmuni hamda ijtimoiy hayotdagi o'rnini ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida tarixiy manbalar, xonlik davriga oid solnomalar va zamonaviy tarixshunoslik asarlaridan foydalanildi. Shuningdek, Feruzning ilm-fan va ma'rifat

rivojiga qo'shgan hissasi, diniy-ta'lim muassasalarining jamiyatdagi ahamiyati yoritib berildi.

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ШКОЛ И МЕДРЕСЕ В ХИВИНСКОМ ХАНСТВЕ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ МУХАММАДА РАХИМХАНА II (1864–1910)

Жамшидбек Ибодуллаев

Стажёр-преподаватель, независимый исследователь

Ургенчский технологический университет RANSH

Ургенч, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Мухаммад Рахимхан II, Феруз, Хивинское ханство, школа, медресе, система образования, просвещение, XIX век.

Аннотация: В данной статье проводится научный анализ деятельности школ и медресе в период правления Мухаммада Рахимхана II (Феруза), правителя Хивинского ханства в конце XIX - начале XX веков, их материального обеспечения, содержания образования и роли в общественной жизни. В процессе исследования были использованы исторические источники, летописи периода ханства и современные историографические труды. Также был освещен вклад Феруза в развитие науки и просвещения, значение религиозно-образовательных учреждений в обществе.

Kirish. XIX asr ikkinchi yarmi Xiva xonligi tarixida siyosiy, madaniy va ma'rifiy jarayonlar bilan ajralib turadi. Ayniqsa, Muhammad Rahimxon II (1864–1910), ya'ni Feruz hukmronligi davri ilm-fan, adabiyot va ta'lim tizimining nisbatan rivojlangan bosqichi sifatida tarixda muhim o'rin egallaydi. Bu davrda maktab va madrasalar nafaqat diniy ta'lim maskani, balki jamiyatning ma'naviy hayotini belgilovchi asosiy institutlardan biri bo'lgan.

Feruz shaxsiyati – shoir, bastakor va ma'rifatparvar hukmdor sifatida – ta'lim sohasiga alohida e'tibor qaratilishiga zamin yaratdi. Shu bois mazkur maqolada Muhammad Rahimxon II davrida maktab va madrasalar faoliyatining asosiy jihatlari ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Xiva xonligida an'anaviy ta'lim tizimi asosan maktab va madrasalar orqali amalga oshirilgan. Muhammad Rahimxon II davrida Xiva, Urganch, Xonqa va Hazorasp shaharlarida o'nlab maktab va madrasalar faoliyat ko'rsatgan. Akademik Yahyo G'ulomovning "Памятники города Хивы" monografiyasida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xiva shahrining o'zida 36 madrasa bino qilinganligini ko'rsatib o'tadi.[1] Boshlang'ich ta'lim maktablarda berilib, unda Qur'on o'qish, yozuv, hisob va axloqiy tarbiya asosiy o'rin tutgan. Madrasalar esa o'rta va oliy

diniy-ta'lim muassasalari bo'lib, bu yerda fiqh, hadis, mantiq, falsafa, arab tili va adabiyoti kabi fanlar o'qitilgan. Manbalarda bu madrasalarda dars bergan va Xiva ilmiy-adabiy muhitida yetakchi bo'lgan mudarris va olimlarning nomlar ham uchraydi. Jumladan, Komil Xorazmiy – shoir, olim va ustoz. Adabiyot, aruz va xattotlikdan saboq bergan. Muhammad Rizo Ogahiy – tarixchi va adib bo'lib, Feruz davrining boshlarigacha faol bo'lgan, madrasalarda ilmiy ta'lim bilan shug'ullangan. Avaz O'tar – shoir va ma'rifatparvar, madrasalarda ta'lim bergan. Suyunqori Domla (ba'zan Suyunqoriy deb ham yoziladi) – fiqh va diniy ilmlar mudarrisi.

Xiva madrasalarida tahsil olgan Munis, Ogahiy, Bayoniy, Komil Xorazmiy, Rasul Mirzo, Laffasiy, Tabibiy, Chokar, Bobojon Tarroh kabi ziyolilar madaniyatimiz tarixida yorqin iz qoldirgan olim, shoir, adib, tarjimon, mohir xattot va musiqashunos sifatida shuhrat topishgan.[2]

Madrasalarda “Navoiyxonlik”, “Sa'diyxonlik”, “Fuzuliyxonlik”, “Bedilxonlik” kabi kechalarni o'tkazish an'anaga aylangan. Bunday bahs, munozara va adabiy kechalarda hatto Xiva xoni Feruzning o'zi ham shaxsan ishtirok etgan. Bu haqda Bayoniy shunday hikoya qiladi: “Xon hazratlari haftada ikki kun : juma va dushanba oqshomlarida ulamo bila suhbat qilib, kitobxonlik etur edilar. Andog'kim, Yusuf Hoji oxun va olim-u ulum maqul va manqulda mulla Muhammad Rasul va Faqiri Haqir majlisi humonlariga haftada ikki marotaba hozir bo'lib kitobxonlik etar erduk”. [3]

Madrasalar to'g'risida Y.Jelyabujskiy shunday yozadi: “Xiva va turkmanlar yurtida madrasa va o'quv yurtlari juda ko'p. Ularning qurilishi va faoliyati uchun hukmdorlar ham, xalq ham kuchli jonbozlik ko'rsatishadi. Masalan, Xivada bir necha madrasalar mavjud, ayniqsa, Madaminxon madrasasi mashhurdir. Xalqni o'qitish va ma'lumotli qilish bilan dindorlar shug'ullanishadi. [4]

Feruz davrida madrasalar asosan vaqf mulklari hisobidan moliyalashtirilgan. Vaqf yerlari, do'konlar va boshqa daromad manbalari madrasa mudarris va talabalarining ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilgan. Mudarrislar jamiyatning qadrlil insonlari bo'lib, shu davrga nisbatan yuqori maosh olishgan. Lekin barcha mudarris va olimlar bir xil yuqori haq olishmagan. Albatta bu daromadlar vaqf yerlariga tushadigan mablag'larga va mudarris va olimlarning ilmiy saviyasi va obro'siga qarab farq qilgan. Ayrim yirik madrasalar bevosita xon tomonidan homiylik qilingan. Xiva madrasalarida talabalar madrasaning vaqf mulkidan keladigan daromaddan ta'minlanib turardi. Vaqf yerlaridan olinadigan ijara haqiga ijarachilar bug'doy, makkajo'xori kabi mahsulotlar bergani sababli talabalarga ham pul emas, g'alla berilardi. Madrasa talabalari madrasada necha yil o'qiyotganligiga qarab ta'minot masalasida uch guruhga bo'linar edi. Birinchi guruh, ya'ni yuqori kurslardagi talabalar bir yilda bir marta madrasaning daromadiga

qarab 20 dan 40 botmongacha g'alla bilan ta'minlanardi. Ikkinchi guruhga, ya'ni o'rta kurslardagi talabalarga 10 botmondan 20 botmongacha g'alla berilardi. Uchinchi guruh, ya'ni yangi o'qishga kirgan talabalar 5 botmondan 15 botmongacha g'alla olishardi.[5]

Muhammad Rahimxon II tomonidan qurdirilgan yoki ta'mirlangan madrasalar orasida Feruz madrasasi alohida ajralib turadi. Ushbu madrasa nafaqat ta'lim, balki ilmiy-madaniy markaz vazifasini ham bajargan. Madrasalarda ta'lim jarayoni qat'iy tartib asosida olib borilib, mudarrislar ilmiy saviyasi bilan tanlangan. 1871-yilda Matniyoz devonbegi tomonidan Xiva shahrining Ichan-Qal'a qismida madrasa bunyod etilgan va bir necha yirik mulklar vaqf qilingan. Matniyoz devonbegi birodari Bekniyoz mahram bilan birgalikda mutavalli sifatida mazkur vaqf mulklari ustidan nazoratni saqlab qolgan. Matniyoz devonbegi madrasasining yillik daromadi vaqf huquqiga mos ravishda, avvalo, madrasa binosini ta'mirlash ishlariga sarflashni nazarda tutgan. Shundan so'ng qolgan mablag'ning 1/10 qismi mutavallining maoshi sifatida ajratilgan. Shuningdek, madrasa majmuasining yoruqlik tizimini ta'minlash, masjid ehtiyojlarini qondirish hamda muassasaning xodimlari va talabalari uchun alohida mablag' belgilangan.

Muhammad Rahimxon II tomonidan o'z nomiga atab qurilgan madrasada o'quv jarayonini tashkil etish, vaqf mulklarini boshqarish, ularning qayta sarmoyasini ta'minlash, muassasa xodimlari o'rtasida vaqf daromadlarini o'rnatilgan tartibda taqsimlash, madrasa binosini doimiy ravishda ta'mirlab, lozim darajada tutib turish kabi vazifalarni amalga oshirish uchun ma'muriy boshqaruv tizimiga ehtiyoj seziladi. Odatda, vaqf muassasasi ma'muriy boshqaruvini tashkil etish vazifasi mutavalliga topshiriladi. Shu ma'noda Sayid Muhammad Rahimxon madrasada mutavalli lavozimini ta'sis etadi. Biroq vaqfnomada mutavallilikni madrasa xodimlaridan kim egallashi va bu lavozimning doimiy ravishda qaysi avlod vakillari qo'lida bo'lishi haqida aniq ko'rsatma keltirilmaydi. Faqatgina 1327/1909-yilda qozi tomonidan tasdiqlangan vaqfnoma tarkibidagi hujjatda Muhammad Rahimxon II madrasasi mutavallisi sifatida Muhammad Sharif ismi zikr etiladi.[6]

Maktablarda asosan an'anaviy "saboq usuli" qo'llanilgan bo'lib, o'quvchilar individual tarzda ta'lim olgan. Madrasalarda esa darslar muayyan dastur asosida olib borilgan. Asosiy darsliklar sifatida "Avvali ilm", "Bidon", "Hidoya", "Sharhi Mulla" kabi asarlar o'qitilgan.[7]

Feruz davrida ayrim madrasalarda dunyoviy fanlarga nisbatan qiziqish kuchaygani kuzatiladi. Ayniqsa, tarix, she'riyat va musiqa sohalariga e'tibor ortgan. Bu holat xonning shaxsiy ilmiy didi va adabiy faoliyati bilan bevosita bog'liq edi. Madrasalarda yetishib chiqqan ulamolar jamiyatda muhim ijtimoiy mavqega ega bo'lgan. Ular qozilik, muftiylik, mudarrislik kabi lavozimlarda faoliyat yuritgan. Feruz ulamolarni hurmat qilgan, ilm ahliga moddiy va ma'naviy ko'mak bergan.

Xulosa. Muhammad Rahimxon II (Feruz) davrida Xiva xonligida maktab va madrasalar ta'lim tizimining asosiy bo'g'ini sifatida jamiyat hayotida muhim o'rin tutgan. Ushbu ta'lim muassasalari nafaqat aholining savodxonligini oshirish, balki yosh avlodni ma'naviy-axloqiy ruhda tarbiyalash, islomiy qadriyatlarni mustahkamlash hamda milliy o'zlikni saqlab qolishda katta ahamiyat kasb etgan. Maktablarda ibtidoiy ta'lim asoslari — o'qish-yozish, Qur'on qiroati va odob-axloq qoidalari o'rgatilgan bo'lsa, madrasalarda fiqh, hadis, tafsir kabi diniy fanlar bilan bir qatorda adabiyot, tarix, mantiq va sarf-nahv kabi ilmlar ham o'qitilgan.

Feruzning ma'rifatparvar siyosat yuritishi natijasida ta'lim muassasalari davlat tomonidan qo'llab-quvvatlangan, olimlar, shoirlar va ruhoniylarga e'tibor kuchaygan. Bu esa ilmiy va adabiy muhitning jonlanishiga, ma'naviy hayotning yuksalishiga zamin yaratgan. Ayni paytda, ta'lim tizimi an'anaviy xususiyatga ega bo'lgan bo'lsa-da, u jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda faoliyat yuritib, barqaror rivojlanishni ta'minlagan.

Umuman olganda, Muhammad Rahimxon II davrida maktab va madrasalar faoliyati Xiva xonligida ilm-fan va madaniyat taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shgan. Mazkur davrda to'plangan ta'limiy tajriba va ma'naviy meros o'zbek xalqining ta'lim tarixi va madaniy taraqqiyotida muhim bosqich sifatida alohida ahamiyatga ega bo'lib, keyingi avlodlar uchun ham muhim ilmiy-ma'rifiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Гулямов Я.Г. Памятники города Хивы. – С.40-41.
2. Yusupov H.S. Xiva madrasalari. – B.47.
3. Мухаммад Юсуф Баёний. Шажарайи Хоразмшоҳий. – Б.95
4. Желябужский Е. Очерки завоевания Хивы. – С.53-54.
5. Қозоқов Э. Хоразм Республикаси ҳукуматининг ислом дини ва руҳонийларга нисбатан олиб борган сиёсати (1920–1924-йиллар). – Б.52.
6. Yusupov H.S. Xiva madrasalari. – B.58.
7. Abdurasulov M. O'rta Osiyoda madrasa ta'limi. – Toshkent: Universitet, 2002.